ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24416473

Yangi o‘zbekiston sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning konseptual asoslari

Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna –
Urganch davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nuraddinovaraviyajan79@gmall.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning konseptual asoslari yoritilgan. Qadriyatlar shaxs ongi va xulq-atvorini yo‘naltiruvchi, ijtimoiy hayotda barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy mezonlar tizimi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi, ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan asoslanib, tarbiya jarayonini tashkil etishning metodologik tamoyillari, tarkibiy komponentlari va ijtimoiy institutlar hamkorligiga asoslangan konseptual modeli ishlab chiqilgan. Qadriyatlarni anglash, qabul qilish, ichki e’tiqodga aylantirish va faoliyatda namoyon etish bosqichlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviyat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, qadriyatli yondashuv, konseptual model, ijtimoiy institutlar.*

Концептуальные основы воспитания молодёжи на основе национальных и общечеловеческих ценностей в условиях нового узбекистана

Аннотация. *В статье рассматриваются концептуальные основы воспитания молодёжи на основе национальных и общечеловеческих ценностей в условиях Нового Узбекистана. Ценности трактуются как система духовных ориентиров, направляющих сознание и поведение личности и обеспечивающих стабильность общественной жизни. Обоснована взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей с философской, педагогической и психологической точек зрения, разработана концептуальная модель воспитательного процесса, включающая методологические принципы, структурные компоненты и механизмы взаимодействия социальных институтов.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, воспитание молодёжи, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовность, патриотизм, толерантность, ценностный подход, концептуальная модель.*

Conceptual foundations of youth education based on national and universal human values in the context of new uzbekistan

Annotation. *The article examines the conceptual foundations of educating young people on the basis of national and universal values in the context of New Uzbekistan. Values are interpreted as a system of spiritual guidelines that direct an individual’s consciousness and behavior and ensure the stability of social life. The study substantiates the interrelation between national and universal values from philosophical, pedagogical and psychological perspectives and proposes a conceptual model of the upbringing process, including methodological principles, structural components and mechanisms of cooperation among social institutions.*

Keywords: *New Uzbekistan, youth education, national values, universal values, spirituality, patriotism, tolerance, value-based approach, conceptual model, social institutions.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot oqimlarining keskin ko‘payishi va turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi yoshlar tarbiyasi masalasini davlat va jamiyat hayotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda yosh avlodning dunyoqarashi nafaqat oila va ta’lim muassasasi, balki raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat ta’sirida ham shakllanmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning milliy o‘zlikni anglashi bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini ongli ravishda qabul qila olishi tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari himoya qilinishini, ularning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga ko‘maklashishini kafolatlashi belgilangan [1]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda esa ta’limning asosiy tamoyillari qatorida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi alohida qayd etilgan [2]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari belgilab berilgan [3]. Shu bilan birga, amaliyotda qadriyatlar tarbiyasi ko‘pincha axborot berish, tadbirlar o‘tkazish yoki shiorlar bilan cheklanib qolayotgani, qadriyatlarning yoshlar ongida ichki e’tiqodga aylanish mexanizmlari yetarlicha e’tiborga olinmayotgani kuzatiladi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayonining yaxlit konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning konseptual asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va tarbiya jarayonining yaxlit modelini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadriyatlar asosida tarbiyalash g‘oyasi Sharq mutafakkirlari merosida chuqur ildizlarga ega. Abu Nasr Forobiy fozil jamoa haqidagi qarashlarida inson kamolotini bilim, axloq va ijtimoiy faoliyat uyg‘unligida ko‘radi hamda baxtga erishish yo‘lini ezgu fazilatlarni tarbiyalash bilan bog‘laydi [4]. Abdulla Avloniy esa tarbiyani “hayot-mamot masalasi” deb baholab, yaxshi xulqlarni shakllantirishda millat taqdiri uchun mas’uliyat hissini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi [5]. Ushbu qarashlar milliy tarbiya an’analarida axloqiylik, ma’rifatparvarlik va jamiyatga xizmat g‘oyalarining yetakchi o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida milliy ma’naviyatni tiklash va yuksaltirish masalasi ilmiy-falsafiy jihatdan keng tadqiq etildi. I.A.Karimov ma’naviyatni insonni ruhan poklanish va yuksalishga chorlaydigan, uning ichki dunyosini boyitadigan kuch sifatida ta’riflab, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un holda qo‘llash zarurligini asoslagan [6]. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ma’rifatli jamiyat qurish, “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishda ta’lim-tarbiya va yoshlar masalasini hal qiluvchi omil sifatida belgilaydi [7]. O‘zbek pedagogikasida O.Musurmonova ma’naviy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasining mazmuniy asosi sifatida o‘rganib, ularni o‘quvchi faoliyatiga singdirish shart-sharoitlarini ko‘rsatib bergan [8].

Xorijiy tadqiqotlarda qadriyatlarning psixologik tabiati alohida o‘rganilgan. M.Rokeach qadriyatlarni shaxs uchun muayyan xulq yoki maqsadning afzalligi haqidagi barqaror e’tiqod sifatida ta’riflab, ularni maqsad-qadriyatlar va vosita-qadriyatlarga ajratadi [9]. S.Schwartz turli mamlakatlarda o‘tkazilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar asosida universal qadriyatlar tuzilmasini ishlab chiqib, an’ana, xayrixohlik, universalizm, xavfsizlik kabi qadriyat turlari barcha madaniyatlarda uchrashini, ammo ularning ustuvorlik darajasi madaniyatga bog‘liqligini ko‘rsatgan [10]. Bu xulosa milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Axloqiy tarbiyaning bosqichma-bosqich tabiati L.Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasida asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra shaxs tashqi nazoratga tayanuvchi axloqdan umuminsoniy tamoyillarga asoslangan ichki axloqqa tomon rivojlanadi [11]. T.Lickona xarakter tarbiyasi konsepsiyasida axloqiy bilish, axloqiy his va axloqiy harakatning birligini ta’kidlaydi [12]. U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi esa shaxs rivojlanishiga oila, ta’lim muassasasi, mahalla va keng ijtimoiy muhitning o‘zaro bog‘liq ta’sirini asoslaydi [13]. YUNESKOning “Ta’lim: yashirin xazina” ma’ruzasida XXI asr ta’limining to‘rt ustuni sifatida bilishni o‘rganish, ishlashni o‘rganish, birga yashashni o‘rganish va yashashni o‘rganish belgilangan [14]. Tahlil qilingan qarashlar asosida qadriyatlar tarbiyasini uch o‘zaro bog‘liq jihat birligida ko‘rish mumkin: qadriyatni bilish (kognitiv jihat) → qadriyatni his qilish va qabul qilish (emotsional-qadriyatli jihat) → qadriyatni xulq va faoliyatda namoyon etish (amaliy jihat). Mazkur birlik maqolada taklif etilayotgan konseptual modelning asosiy g‘oyasini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asosini qadriyatli (aksiologik), shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli, madaniyatshunoslik va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Aksiologik yondashuv tarbiya jarayonini qadriyatlarni anglash va o‘zlashtirish jarayoni sifatida talqin etish imkonini bersa, tizimli yondashuv oila, ta’lim muassasasi, mahalla, yoshlar tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining tarbiyaviy ta’sirini yagona tizim sifatida o‘rganishga asos bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-falsafiy va pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik kuzatish hamda ilg‘or tarbiyaviy tajribani o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar qadriyatlar tarbiyasining mazmuniy komponentlarini aniqlash va ular o‘rtasidagi aloqadorlikni asoslashga xizmat qildi.

Tahlil natijasida yoshlar tarbiyasida tayanch bo‘ladigan qadriyatlar quyidagi guruhlarga ajratildi:

1-jadval.

Yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi

Qadriyatlar guruhi	Milliy ifodasi	Umuminsoniy ifodasi	Shakllanadigan sifat
Ma’naviy-axloqiy	Halollik, oriyat, mehr-oqibat, kattalarga hurmat	Ezgulik, adolat, insonparvarlik	Axloqiy barkamollik
Fuqarolik-vatanparvarlik	Vatanga sadoqat, milliy ramzlarga hurmat	Inson huquqlari, qonun ustuvorligi	Fuqarolik mas’uliyati

Ijtimoiy-madaniy	Oila, mahalla, hashar, til va urf-odatlar	Bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot	Ijtimoiy faollik va hamjihatlik
Intellektual-ma’rifiy	Ilm-ma’rifatga hurmat, allomalar merosi	Ilmiy tafakkur, uzluksiz ta’lim	Ma’rifatparvarlik
Ekologik va sog‘lom turmush	Tabiatga ehtiyotkorlik, sog‘lom avlod g‘oyasi	Barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat	Ekologik madaniyat

Jadvaldan ko‘rinadiki, har bir qadriyatlar guruhida milliy va umuminsoniy jihatlar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi. Masalan, mehr-oqibat va hashar kabi milliy an’analar insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlikning umuminsoniy g‘oyalari bilan mazmunan uyg‘undir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash samaradorligi qadriyatlarning yoshlar ongida tashqi talab sifatida emas, balki ichki ehtiyoj va e’tiqod sifatida qaror topishi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. Shu asosda tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi konseptual tamoyillari ishlab chiqildi: milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi; tarixiy vorislik va zamonaviylik; shaxsga yo‘naltirilganlik va faoliyatlilik; ijtimoiy institutlar hamkorligi; uzluksizlik va izchillik; raqamli muhitga moslashuvchanlik.

Qadriyatlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida modellashtirildi. Konseptual modelda qadriyatlar tarbiyasi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

qadriyatni bilish → anglash va baholash → qabul qilish → ichki e’tiqodga aylantirish → xulq-atvor va faoliyatda namoyon etish.

Birinchi bosqichda yoshlar qadriyatlar mazmuni, tarixiy ildizlari va ijtimoiy ahamiyati haqida bilim oladi. Ikkinchi bosqichda bu bilimlar shaxsiy tajriba va hayotiy vaziyatlar bilan qiyoslanib, ularga nisbatan munosabat shakllanadi. Uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarda qadriyat shaxsning o‘z tanlovi sifatida qabul qilinib, barqaror e’tiqodga aylanadi. Yakuniy bosqichda esa qadriyat yoshlarning kundalik xulqi, o‘qish va mehnat faoliyati, ijtimoiy loyihalardagi ishtirokida namoyon bo‘ladi. Konseptual modelning tarkibiy komponentlari va ularning mazmuni quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

2-jadval.

Yoshlarni qadriyatlar asosida tarbiyalash konseptual modelining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Amalga oshirish vositalari
Maqsadli	Milliy o‘zlikni anglagan, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash	Davlat dasturlari, ta’lim standartlari, tarbiya konsepsiyalari
Mazmuniy	Ma’naviy-axloqiy, fuqarolik, ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy va ekologik qadriyatlar tizimi	“Tarbiya” fani, o‘quv fanlari mazmuni, mutafakkirlar merosi
Tashkiliy-faoliyatli	Qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirish	Ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, to‘garaklar, keys va munozaralar
Institutsional	Oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoat tashkilotlari hamkorligi	Hamkorlik rejalari, mentorlik, mahalla tadbirlari
Axborot-raqamli	Raqamli muhitda qadriyatli munosabat va mediasavodxonlikni shakllantirish	Mediata’lim, ijobiy kontent yaratish, onlayn platformalar
Baholash-natijaviy	Qadriyatli yo‘nalganlik darajasini aniqlash va tuzatish	So‘rovnoma, kuzatuv, portfolio, refleksiv suhbatlar

Modelning muhim jihati uning institutsional komponentida namoyon bo‘ladi. U. Bronfenbrenner nazariyasiga muvofiq, yoshlar tarbiyasida oila, ta’lim muassasasi va mahalla ta’sirlari bir-biriga zid bo‘lsa, qadriyatlar yoshlar ongida mustahkam o‘rnashmaydi [13]. O‘zbek jamiyatida mahalla instituti azaldan tarbiyaviy vazifani bajarib kelgan bo‘lib, uning imkoniyatlaridan zamonaviy shakllarda foydalanish – mentorlik, avlodlararo muloqot, mahalla miqyosidagi ijtimoiy loyihalar orqali – qadriyatlarning hayotiy amaliyot bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. Shuningdek, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida belgilanganidek, tarbiya oiladan boshlanib, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim bosqichlarida izchil davom ettirilishi lozim [15]. Har bir yosh davrida qadriyatlarni o‘zlashtirish shakllari farqlanadi: kichik yoshda taqlid va o‘yin, o‘smirlik davrida namuna va jamoaviy faoliyat, yoshlik davrida esa mustaqil tanlov, muhokama va ijtimoiy mas’uliyat yetakchi o‘rin egallaydi. Bu L. Kohlberg nazariyasidagi tashqi axloqdan ichki axloqqa o‘tish g‘oyasi bilan ham mos keladi [11].

Raqamli muhit sharoitida qadriyatlar tarbiyasi faqat taqiqlash yoki cheklashga asoslanishi samara bermaydi; yoshlarning axborotni tanqidiy baholash, soxta va zararli kontentni farqlash, milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi ijobiy kontent yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Shu bois mediasavodxonlik qadriyatlar tarbiyasining zamonaviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumlashtirib aytganda, taklif etilayotgan konseptual model qadriyatlar tarbiyasini quyidagi yaxlit tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi:

maqsad → qadriyatlar mazmuni → faoliyat shakllari → ijtimoiy institutlar hamkorligi → raqamli muhit → natijani baholash.

Bunday yondashuvda yoshlar tarbiyaning passiv obyekti emas, balki qadriyatlarni faol anglovchi, ularni qayta talqin etuvchi va jamiyat hayotida namoyon etuvchi subyekt sifatida qaraladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil asosida Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili ekanligi aniqlandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro uyg‘un tizimni tashkil etadi: milliy qadriyatlar yoshlarning o‘zligini, umuminsoniy qadriyatlar esa ularning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini anglashiga xizmat qiladi. Qadriyatlar tarbiyasining samaradorligi bilish, anglash, qabul qilish, ichki e’tiqodga aylantirish va faoliyatda namoyon etish bosqichlarining izchil amalga oshirilishiga, shuningdek, oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoat tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan hamkorligiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshlarni qadriyatlar asosida tarbiyalash samaradorligini oshirish uchun:

- ta’lim mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni fanlararo integratsiya asosida singdirish;
- qadriyatlarni amaliy faoliyat — ijtimoiy loyihalar, volontyorlik va mentorlik orqali o‘zlashtirishni tashkil etish;
- oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining yagona tarbiyaviy rejasini ishlab chiqish;
- yoshlarda mediasavodxonlik va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- pedagoglarning qadriyatli yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kompetensiyasini oshirish;
- yoshlarning qadriyatli yo‘nalganlik darajasini muntazam diagnostika qilish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash alohida tadbirlar yig‘indisi emas, balki ilmiy asoslangan, uzluksiz va tizimli jarayon sifatida tashkil

etilgandagina Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyoti va “Uchinchi Renessans” g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
8. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
9. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.
10. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
11. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 441 p.
12. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991. – 478 p.
13. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
14. Delors J. et al. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 1996. – 266 p.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.